

## TIQXMMIda “GAT barcha sohalarga yangilik kiritadi (ГИС ВВОДИТ НОВШЕСТВА ВО ВСЕ СФЕРЫ)” mavzusida ONLAYN FORUM o'tkaziladi

Pekin shahrida 2019 yilning 31 oktyabr kuni “O'rta Osiyo va Janubiy Kavkaz mamlakatlarini rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi universitetlari” konsorsiumi (KASKAD) ga raislik quvchi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti rektori, prof. O'.Umurzakov va Xitoyning yirik raqamli geoaxborotlar texnologiyalari soxasidagi SuperMap International kompaniyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolangan.



SuperMap International kompaniyasi (ARC Advisory-2019 xisobotiga muvofiq) GAT maxsulotlarini Osiyo bozoriga yetkazib berishda kattaligi bo'yicha 1-o'rinni va jaxon bozorida ea 3-o'rinni egallaydi. Xozirda “KASKAD” va TIQXMMI Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ichida birinchi bo'lib SuperMap International kompaniyasi bilan memorandum imzolagan tashkilotlardan xisoblanadi. “KASKAD” konsorsiumi o'zining oldiga qo'ygan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar soxalarida muxim bo'lgan milliy, xududiy va xalqaro miqyosdagi muloqotlar platformasini rivojlantirishda, birinchilardan bo'lib “SuperMap”, “KASKAD” va TIQXMMI xamkorligida MDX mamlakatlarining turdosh tashkilotlari uchun **“GAT barcha sohalarga yangilik kiritadi (GIS vvodit novshestva vo vse sferы)”** mavzusida ONLAYN FORUM tashkil etmoqda ([https://www.supermap.com/en-us/news/?38\\_2763.html](https://www.supermap.com/en-us/news/?38_2763.html)).

### Forumning o'tkazilish vaqti:

-28 aprel kuni soat 10.00 dan -12.10 gacha rus tilida uchta taqdimot;

-29 aprel kuni soat 09.30 dan 17.30 gacha ingliz tilidagi amaliy mashg'ulotlardan iborat.

Mazkur forumda O'rta Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmeniston, O'zbekiston) , Janubiy Kavkaz (Ozarbayjon, Armaniston, Gruzii), Rossiya, Belarusiya, Ukraina mamlakatlarining vakillari ishtirok etadi. Qiziquvchilarni ushbu forumda ishtirok etishga taklif qilamiz.

ONLAYN FORUM SuperMap International kompaniyasining quyidagi saytida joylashtirilgan:

[https://www.supermap.com/en-us/news/?38\\_2763.html](https://www.supermap.com/en-us/news/?38_2763.html)

### Qo'shimcha ma'lumotlar:

Zoom dasturini yuklash (barcha terminallar uchun): <https://zoom.com.cn/download>

Onlayn forumga bog'lanish

[https://zoom.com.cn/webinar/register/WN\\_MJbO-wPjQWieLEPeS3wWeQ](https://zoom.com.cn/webinar/register/WN_MJbO-wPjQWieLEPeS3wWeQ)

**Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор Т.Султанов**